

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



N: 43 (67312)
2020-yil 26-oktyabr


www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

USHBU SONDA:



Nashr
ko'rsatkichi
198

2021-yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna boshlandi!

Manzilimiz: Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Indeks: 100 011.

Tel./faks: (0-371) 244-63-08

www.tongyulduzi.uz,

tongyulduzi1929@umail.uz

Telegram: t.me/tongyulduz



TIL – DIL JARCHISI, TIL – AQL BEZAGI, TIL – AQL TAROZISI

Yurtimiz bo'ylab katta quvonch bilan nishonlangan o'zbek tili bayrami Toshkent viloyati, Angren shahridagi 17-umumta'lim maktabida ham o'zgacha ruhda kechdi. Maktabning 7-«A» sinf o'quvchilari tashkillashtirgan «O'zbek tilim – sarchashmangdan sarxush dilim» nomli bayram tadbiri nafaqat maktab o'quvchilariga, balki «Tong yulduzi» ijodiy jamoasiga ham manzur bo'ldi.

– O'quvchilarimdan juda ham mamnun bo'ldim. Meni urintirishmadi, ssenariyni ham o'zlari tuzib, barchasiga o'zlari bosh-qosh bo'ldilar, – deydi sinf rahbari Dilafruzxon Ismoilova.


Qizg'in kechgan mushoira bahslari dilbar kuy-navolarga ulanib, barchaga birday quvonch bag'ishladi. Tadbir so'ngida faol o'quvchilar kitoblar to'plami hamda faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar.



Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMda til bayrami munosabati bayram tadbiri o'tkazildi. Davlat tilimizga oid ma'lumotlar va shoirlarning tilimizni madh etgan satrlari tadbirga o'zgacha ruh baxsh etdi. Til bayrami dasturining qiziqarli hamda mazmunli o'tishida ona tili va adabiyot fani o'qituvchi-

lari Zarifa Pirmuhammedova, Muhayyo Niyazmetova va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Shoqosim Shopo'latovning hissasi katta bo'ldi. Tadbir so'ngida faol o'quvchilar tashakkurnoma hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Husan TURSUNOV



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot ustozlari va maktab direktori Baxtiniso Po'latova boshchiligidagi «Til millat ko'zgusidir» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda o'quvchilar tomonidan sahnalashtirilgan chiqishlari, raqs-dagi ijro mahorati tadbir ishtirokchilarining olqishlariga sazovor bo'ldilar. Tadbir davomida maktabimiz rahbari so'zga chiqib, o'zbek tili naqadar boy va qadri baland ekanligi, o'sib kelayotgan yosh avlod millatimiz g'ururi bo'lgan ona tilimizni asrab-avaylashimiz, bu buyuk merosimizni keyingi avlodlarga ham bus-butun yetkazishimiz kerakligi haqida ta'kidlab o'tdilar.

Feruza ISLOMOVA,
Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi



«Ona tilim – jon-u dilim» deb nomlangan navbatdagi tadbir Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 4-«A» sinfida ham o'tkazildi. A. Azimova rahbarlik qilayotgan ushbu sinf o'quvchilari ona tilimizning jozibasini, uning naqadar boy ekanligini o'z she'r-u kuy-qo'shiqlarida namoyish etdilar.

Butun dunyoni o'z izmiga solgan tilsiz yov – «COVID-19» insoniyatga turlicha ta'sir o'tkazdi. O'zbekiston yoshlari pandemiya munosabati bilan joriy qilingan karantin davrida uyda vaqtini behuda sarflashdan ko'ra imkoniyatlardan unumli foydalanishni ma'qul ko'rishdi.



KARANTINDA YOSHLAR...

Karantin davomida 60 dan ortiq xalqaro hamda respublika miqyosida konferensiya, Sammit, bepul treninglar, deputatlar bilan onlayn uchrashuvlar, Forumlar tashkil qilindi. Quvonarli jihati shundaki, bu amaliy ishlarning barchasi talaba-yoshlar tashabbusi bilan amalga oshirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, «Khan Academy» O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlaganiga hech qancha vaqt bo'lmay o'z nufuziga ega bo'ldi. Akademiya tomonidan tashkil qilinadigan har bir loyiha kuzatuvchilar tomonidan iliq qarshi olinadi. Jumladan, avgust oyida tashkil etilgan «Translation» marafonida juda katta sonlar rol o'ynadi. Nega, deysizmi? Aynan ushbu loyiha kutilmagan natijalarni hamda muvaffaqiyatlarni keltirdi.

ramay, ulkan loyihaga qo'l urdi. To'rt yo'nalishda 24 nafar xalqaro – ya'ni Pokiston, Hindiston, Amerika hamda Afg'oniston davlatlaridan speakerlar 281 nafar mahalliy va 33 chet mamlakat qizlari bilan 2 kun davomida birga bo'lishdi. Konferensiyada Xalqaro delegatlar ham faol ishtirok etishdi. Marjona yevropalik hamda osiyolik qizlarni o'zbek qizlari bilan birlashtira oldi.

Qizig'i shundaki, Zoom platformasi hamda telegram messenger orqali amalga oshirilgan konferensiyalarda nafaqat O'zbekiston, balki Angliya, Amerika, Hindiston, Koreya, Singapur, Polsha, Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston kabi bir qator davlatlardan ham vakillar ishtirok etishdi. Ular o'z mamlakatlari tarixi, xalqining turmush tarzi, u yerdagi ijtimoiy-siyosiy



Translation bu – 1 million so'zdan iborat rus va ingliz tilidagi top kontentni 7 kun ichida o'zbek tiliga tarjima qilishni uddasidan chiqqan, ko'ngillilar hamrohligida tashkil etilgan marafon. 800 nafar ishtirokchini bir maqsad atrofida jamladi. 132 nafar ilmga chanqoq tarjimonlar saralab olinib, 75000 so'zdan iborat mingdan ortiq maqola, ya'ni o'nta kitob tarjima qilindi. Ushbu ulkan natija qisqa fursatlarda, 7 kun mobaynida amalga oshirildi.

Konferensiya Prezidentlari qatorida qashqadaryolik Marjona Jo'raqulova ham bor. Marjona ayni damda 16 yoshda. «International girl summit – 2020» aynan uning loyihasidir. U yosh bo'lishiga qa-

yangiliklar bilan o'rtoqlashishdi. Odamlarning dunyoqarashidagi o'xshashliklar, oqsayotgan sohalar muhokama qilindi.

Talaba-yoshlarni viloyat hamda shahar hokimliklari, deputatlar, senatorlar, yoshlar tashkilotlari, partiyalar qo'llab-quvvatlab, ma'naviy hamda moddiy ko'mak berishdi. Online loyihalar, albatta, bepul emas edi, topilgan mablag' ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, yolg'iz qariyalar va bolalar uylariga yordam puli sifatida taqdim qilindi.

Nigora ORIFJONOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston
shahridagi 5-umumta'lim
maktabining 11-sinf o'quvchisi

Lesson 43

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

TEN INTERESTING FACTS ABOUT LIONS



1. A lion may sleep up to 20 hours a day.
2. A lion's heels don't touch the ground when it walks.
3. A good gauge of a male lion's age is the darkness of his mane. The darker the mane, the older the lion.
4. Even though the lion is sometimes referred to as the «king of the jungle», it actually only lives in grasslands and plains. The expression may have come from an incorrect association between Africa and jungles or may refer to a less literal meaning of the word jungle.
5. A lion can run for short distances at 50 mph and leap as far as 36 feet.
6. A lion's roar can be heard from as far as 5 miles away.
7. The lion was once found throughout Africa, Asia and Europe but now exists only in Africa with one exception. The last remaining Asiatic lions are found in Sasan-Gir National Park in India, which was primarily created to protect the species. Currently, there are approximately 350-400 lions in the park.
8. These majestic cats are threatened by habitat loss. The lion is listed as vulnerable on the IUCN Red List of Threatened Species.
9. Male lions defend the pride's territory while females do most of the hunting. Despite this, the males eat first.
10. African lions are the most social of all big cats and live together in groups or «prides». A pride consists of about 15 lions.

IRREGULAR VERBS

1. Write the past tense verb in the space provided.
2. Find your answers in the puzzle.

(words only run across and down)

s	t	o	o	d	e	a	l	t	f
h	u	r	t	l	e	d	s	p	o
o	g	r	o	u	n	d	l	a	u
n	a	w	o	r	e	l	i	i	n
e	v	k	n	h	i	t	d	d	d
b	e	r	a	n	c	r	e	p	t
k	n	e	l	t	b	o	u	n	d
s	o	u	g	h	t	s	o	l	d

Find _____	Wear _____	Stand _____	Bind _____
Hurt _____	Creep _____	Seek _____	Deal _____
Pay _____	Grind _____	Run _____	Kneel _____
Sell _____	Lead _____	Shine _____	Give _____
Slide _____	Hit _____		

To'lqin PARDAYEV

YURTIMIZGA BAYRAMLAR YARASHADI

Kuni kecha yurtimiz bo'ylab eng aziz bayramlardan biri - O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 31 yilligi keng nishonlandi. Ushbu bayram arafasida maktabimiz o'quvchilari ham o'zlarining ona tilimizga bag'ishlagan she'r-u qo'shiqlarini tayyorlashdi.



Ayniqsa, men rahbarlik qilayotgan 3-«D» sinf o'quvchilarining ushbu shodiyonaga tayyorgarlik ko'rishlarini bir ko'rsangiz edi. Yod olgan she'rlarini pichirlab takrorlayotgan o'quvchilarimga boqib, behad xursand bo'lib ketdim. Chunki bu shodiyona pandemiyadan so'ng o'tkazayotgan ilk bayramimiz edi-da. Shuning uchun o'quvchilarim bilan bu tadbirga astoydil tayyorgarlik ko'rdik. Bayramda o'quvchilarimdan Shabbona

Mahmayusupova, Jo'rabek Shodiyev, Kamron Sodiqovlar faol qatnashdi. Ayniqsa, Shohsanam Eshmurodova, Asila Ibrohimova ijro etgan qo'shiqlar barchamizga manzur bo'ldi. Yurtimizga bayramlar, shodiyonalar yarashadi. Mana shunday bayramlarga boy kunlarimiz bardavom bo'laversin.

Dilshoda TO'RAYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumanidagi

53-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BAXT BAG'ISHLOVCHI TOZA RUH MANBAI



«Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbai tildir», «Tilini tiyolgan odam donishmand», «Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi, til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi», «Til shirini ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa foydalidir».

Darhaqiqat, so'z mulki-ning sultoni Hazrat Navoiyning ham nazmda, ham nasrda ifodalagan ushbu hikmatlarida o'tkir mazmun, ma'rifiy-tarbiyaviy, pand-nasihat va estetik tushunchalar mujassamlangani uchun ham ular quloqqa yoqimli eshitiladi. Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchilari O'zbek tili bayramiga bag'ishlangan tadbirni ana shu hikmatlarni yoddan aytish bilan boshlashdi. O'quvchilarning badiiy chiqishlarini, ona tilimizni

ulug'lashga oid sahna ko'rinishlarini tomosha qilar ekanmiz, ular-dagi adabiy til qoidalariga to'liq amal qilgan holda so'zlarni to'g'ri, aniq, ravon, ohangdorlik bilan talaffuz qilish orqali savodxonligini oshirishga, lug'atini boyitishga bo'lgan ishtiyoqni ko'rib, quvondik. — Farzandlarimiz kichik yoshlaridanoq o'zbek tilining bor go'zalligi, boyligi, cheksiz imkoniyatlarini his qilishlari, o'z fikrlarini lo'nda, ixcham tarzda va albatta, o'zbek adabiy tili-dan bayon qilishga, tilimizni ortiqcha

g'ayritabiiy birikma va iboralar bilan buzmaslikka odatlanishlari lozim, — dedi maktab rahbari Muhayyo G'anixo'jayeva. — Buning uchun esa kitob, gazeta va jurnallarni ko'proq o'qish kerak. Shu bois, Respublika bolalar va o'smirlar nashri — «Tong yulduzi» gazetasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yganimiz. Reja asosida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan besh tashabbus bo'yicha barcha tadbirlarni tashkillashtiramiz. O'quvchilarimiz pandemiya tufayli yurtimizda joriy qilingan karantin kunlarida taniqli shoir-lar, san'atkorlar, sportchilar bilan bo'ladigan bunday uchrashuvlarni juda sog'inishgan edi. Yangi o'quv yilida o'tkazilayotgan tadbirlaridan

birining ilk mehmonlari bo'lgan bolalar shoiri, adiblari Dilshod Rajab, Soib Mirzo, Muhabbat Hamidova hamda «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlariga o'z minnatdorchiligini bildiramiz... Sahnada o'quvchilar sevimli shoirilarining she'rlarini yoddan o'qishdi, tilimizning sofligini asrashga undovchi sahna ko'rinishlarini namoyish etishdi, diltortar kuy va qo'shiqlar yangradi. Yosh qalbida ona Vatanga, xalqiga, millatiga, tiliga nisbatan hurmat-ehtirom, sadoqat tuyg'ulari ildiz otayotgan bolajonlarga havas-la boqib, ertamiz, kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Nodira NAZAROVA


O'QUVCHINGIZ «XOBBI»SINI BILASIZMI?

Shukurki, yoshlarimizning aksariyati bilimga chanqoq, izlanuvchan, tirishqoq, o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari intiluvchan o'g'il-qizlardir. O'quvchilik davridanoq o'z sevimli mashg'uloti – «xobbi»sini topa olish ham yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida juda muhim.

Men mashg'ulotlarimda o'quvchilarimga ana shunday insonlar haqida so'zlab beraman. Shu orqali o'quvchilarni o'zlari sevgan mashg'ulotdan zavq olishga undayman, hayotga bo'lgan ishtiyoqini oshirib, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar beraman.

Masalan, turli mavzudagi kitoblarni xarid qilish orqali shaxsiy kutubxonasini boyitish yoki bo'lmasa pochta markalari hamda otkritkalar, turli yorliq, nishon va shu kabi o'zini qiziqtirgan buyumlarni yig'ish va ko'paytirib borish kabi mashg'ulotlar shular jumlasidandir. Shuni ham ta'kidlash lozimki, yig'ilgan kolleksiya bir-biridan farq qilishi lozim. Agar u ma'lum bir sohaga yoki mavzuga oid bo'lsa, yanada e'tiborga molik bo'ladi, deb o'ylayman. Keling, o'z qiziqishlari bilan hamqishloqlari hurmatiga sazovor bo'lgan insonlar bilan sizni ham tanishtiray.

G'allaorol tumanidagi Mullabuloq qishlog'ida istiqomat qilgan, marhum Abduqodir Sangirovning uyi mo'jazzgina muzeyni eslatadi. Bu yerda arab va lotin alifbosida chop etilgan adabiyotlar, gazeta va jurnallar taxtlarni saqlanadi. Qo'ytoshlik Saidolim Pirmuhammedov bolaligida og'ir xastalikka chalilib, falaj bo'lib qoldi. Lekin u sira tushkunlikka tushmasdan tinimsiz kitob o'qidi. Mutolaa orqali irodasini tobladi, hayotning naqadar go'zal, qadrlil ekanligini angladi. Uning shaxsiy kutubxonasida ikki mingga yaqin turli adabiyotlar mavjud. Hozirda qishloq ahli uning badiiy kitoblardan bahramand bo'lib kelishmoqda.



«Respublikada xizmat ko'rsatgan quruvchi» O'rishboy Majidov ko'pdan turli adabiyotlarni to'plab keladi. Uning xonadonida 10 mingdan ziyod kitobi bo'lib, shundan 7,5 mingtasi badiiy adabiyotlar hisoblanadi. Zarbdor tumani, Bo'ston shaharchasidagi «Shodlik» mahallasi aholisi bu xonadondagi badiiy asarlarni istagan paytlarida olib o'qish imkoniga egalar. Uning farzandlari Bahrom, Inom, Ikrom, Murod va Mahmudjonlarning har birida 350–500 tadan badiiy kitoblarni mavjud. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

O'quv dargohimizda tashkil etilgan surat va fotolar ko'rgazmasini sevmaydigan, undan hayratlanmaydigan o'smir bo'lmasa kerak. Ko'rgazma o'quvchilarning murg'ak qalblariga go'zallik, matonat, do'stlik, baxt-saodat kabi tuyg'ularni singdiradi. San'at asari qaysi ko'rinishda bo'lmasin, his-tuyg'ularimizga, ruhiyatimizga ta'sir etuvchi ma'naviy go'zallik sifatida namoyon bo'ladi.

Bolani niholga muqoyasa qilamiz. Nihol tuproqdan, suvdan ozuqa olib, baravj rivojlanadi. O'smir ham atrofdagi go'zalliklardan bahramand bo'lib borsa, zavqlana olsa, uni o'z hayotiga olib kirolsa, izlansa, fikrlash doirasi boyib, kengayib boradi.

Mavluda SUYAROVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
22-umumta'lim maktabining oliy toifali
o'qituvchisi

O'ZBEKISTON

Jahon ichra yagonasan, jon guliston,
Chaman uzra bo'y taratgan bog'-u bo'ston.
Qalbmimdagi durdonasan, fidodir jon,
Mangu bo'lsin shuhrating, zo'r – O'zbekiston!

Zar tuprog'i daholarga Vatan bo'lgan,
Jadidlari shu el deya bir tan bo'lgan.
Yuksalgayman jamolingga boqib har on,
Mangu bo'lsin shuhrating, zo'r – O'zbekiston!

Men ham sening bir qizingman, qunduzingman,
Osmoningda porlagan bir yulduzingman.
Yashna, deya tuproqosti ildizingman,
Mangu bo'lsin shuhrating, zo'r – O'zbekiston!

Mushtariybonu DONIYOROVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
13-umumta'lim maktabi o'quvchisi



VATAN

Vatan nima? Muqaddas,
Nonday aziz har yeri.
Shukronani madh etgay,
Shoirilar yozgan she'ri.

Go'zallikni kuylashar,
Samodagi qushlari.
Oydin tunlari shirin,
Go'daklarning tushlari.

Bizlarni chorlar olg'a,
Buyuk kelajak sari.
To'yib quchoqlab, suyib,
Bag'ridan ketmam nari.

Azimjon NURMUHAMMADOV,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 284-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



KELDI KUZ

Ko'ngillarga sokinlik berib,
Xazonlarga bag'rini kerib,
Oq oltinlarni asta terib,
Sog'inganim sezib keldi kuz.

Dalasiga chorlab dehqonni,
Mehnatsevar qilib insonni,
Boylikka burkab bu bo'stonni,
Sog'inganim sezib keldi kuz.

Daraxtlarni kuyga o'ynatib,
Osmon momoni ham yig'latib,
Xazonlarni unsiz o'ynatib,
Sog'inganim sezib keldi kuz.

Saxiylikka to'la quchog'i,
Go'yoki mo'jiza har yog'i,
Faslarning rangin bo'yog'i,
Sog'inganim sezib keldi kuz.

Muhtaram HASANOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
68-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

ENG YAXSHI YO'L

So'nggi o'qigan asarlarim ichida buyuk turk ma'rifatparvar yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning «Choliqushi» asari meni juda ham ta'sirlantirdi. O'z ahdida qat'iy turgan Feride, Kamron, Xayrullabey, Ehsonbey singari roman qahramonlari menda katta taassurot qoldirdilar. Asarda Feridening boshidan kechirganlari misolida o'sha davrdagi turk xalqining ilmsizlik sabab chekkan jabr-u sitamlari, jaholat botqog'iga botgan amaldorlar rangin bo'yoqlar bilan tasvirlangan. Asarni o'qir ekansiz, o'zingizga qayta va qayta turfa xil savollar berishdan to'xtatilmaysiz.

Tun qanchalar uzoq bo'lsa-da, tong otishi muqarrar. Asar qahramonining ham tortgan jabr-u sitamlari izsiz ketmaydi. U minglab, balki millionlab yosh avlodni ruhlantirdi, o'z kuchlariga ilm ulaming



najotkori, kelajagining poydevori bo'lishiga ishonit roldi.

Qadrlil tengdoshim, siz ham ilm yo'lidan og'ishmang, ikkilanmang, intiling. O'z yaqinlaringiz ishonchini oqlang. Bugungi

amallarimiz ertamiz poydevori bo'lgani kabi bugungi olayotgan bilimlarimiz yurtimizning kuch-qudratini, kelajagini belgilab berishini unutmang.

Shahzoda KARIMBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

SEHRILI QALPOQCHAM BO'LSAYDI...

Gran pri mukofoti sohibi, prodyuser, rejissor, barchamizga tanish bo'lgan «Sehrlı qalpoqcha» filmini suratga olgan, Hoshimjon rolini ijro etgan aktyor Umid Hamdamov bilan bolalikka sayohat qildik:

– Bolalikni nimaga qiyoslaysiz?

– Aslida bolalikni hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Men bolalikni bolalikning o'ziga qiyoslayman. Inson umrini uch qismga bo'lsak, eng qiziq, qaynoq, his-tuyg'ularga boy pallasi va eng katta baxt yashiringan davri bu bolalik davri ekan.

– Xudoyberdi To'xta-boevning «Sehrlı qalpoqcha» asari asosida kino olish fikri sizda qanday paydo bo'lgan?

– Bolaligimdan ushbu asarni juda yoqtirar edim. Sehrlı qalpoqcham bo'lishini juda-juda orzu qilganman. Nasib qilgan ekan, yillar o'tib, bu filmda rol ijro etish nasib etdi. Ushbu asar asosida kino olish ishlariga Sarvar Karimov boshchilik qilgan.

– Sizingcha, filmida asardagi voqealiklar to'liq ochib berilganmi?

– Yo'q, albatta, filmida yoritilmagan joylari ko'p. Ehtimol bunga makon va zamon ham sababdir...

– Hoshimjon obrazi-ning bolaligingiz bilan o'xshash tomoni bormi? Bo'lsa, aynan qaysi tomoni?

– Yoshligimda Hoshimjonga o'xshab bir necha bor uydan qochib ketganman (kulib). Uydagilarga aytmadan qishloqqa ravona bo'lardim. Paxta dalalarini, kengliklarni yaxshi ko'rardim. Umuman olganda, ushbu asar ijodimda katta ahamiyat kasb etgan. Ayni paytda ancha ulg'aygan bo'lishimga qaramay, sehrlı qalpoqcham bo'lishini hamon orzu qilaman. Ayniqsa, nohaqliklarga guvoh bo'lganimda.

– Maktabda qanday xulqli o'quvchi bo'lgansiz va qaysi fanlarni yaxshi ko'rgansiz?

– Maktabda o'rtoqlarim menga, fe'l-atvori og'ir, indamas, deya baho berishardi. Lekin o'zim bu fikrga qo'shilmayman. Chunki juda tirishqoq va ishimga puxta bola edim. 7-sinfda o'qiyotgan paytlarimdanoq



**Tohir Saidov,
Abdurayim
Abduvahobov,
Dilbar Ikromova,
Karim Mirxodiyev
kabi taniqli ustoz
aktyorlar bilan
birga ishlash
baxtiga muyassar
bo'lganman.**

pul topa boshlaganman. Keyinchalik san'at olamiga kirganimda esa, kesakdan ham o't chiqarkan-da, deyishgan.

Sevimli fanimga keladigan bo'lsak, tarix faniga qiziqishim kuchli edi. Chunki ustozimiz Nazar Shukrullayev darsni juda qiziqarli va jonli o'tardi. Umuman

olganda, barcha gumanitar fanlarni yaxshi ko'rganman.

– Har bir inson o'ziga kasb tanlashdan oldin biror insonga havas

likka qiziqish bu vaziyat taqozosi bo'lgan. Yoshlikdan kichik-kichik ssenariylar, hikoyalar yozib turardim.

Oliyog'ga imtihon topshirganimda, bo'yi past, aktyorlikka to'g'ri kelmaydi, deb past ball qo'yishgan. Shuning uchun rejissorlik fakultetiga o'qishga kirganman.

Shuhrat Abbosov,

Jo'ra Mahmudov, Mahmud Rashidov kabi o'z kasbining fidoyilari qo'lida tahsil olganman. Balki shu sabab menda rejissorlik kasbiga muhabbat uyg'ongandir...

– «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilari-ga tilaklaringiz.

– Doimo shaxdam qadamlar bilan oldingi saflarda yurishlariga, elimizning koriga yaraydigan fidoyi farzand bo'lishlariga tilakdoshman.

Husan TURSUNOV
suhbatlashdi

**Men
bolalikni bolalikning
o'ziga qiyoslayman. Inson
umrini uch qismga bo'lsak, eng qiziq,
qaynoq, his-tuyg'ularga boy pallasi va
eng katta baxt yashiringan davri
bu bolalik davri ekan.**

qiladi. Sizda ham shunday bo'lganmi?

– Rejissor bo'lishdan oldin aktyor bo'lishni orzu qilganman. Ammo aynan biror aktyorga havas qilganman, deyolmayman. Tohir Saidov, Abdurayim Abduvahobov, Dilbar Ikromova, Karim Mirxodiyev kabi taniqli ustoz aktyorlar bilan birga ishladim. Barchasini birdek yaxshi ko'rganman. Menda aktyorlik kasbiga havas kuchli bo'lgan. Rejissor-



Kuz fasli bilamizki, yig'im-terim, qishga taraddud fasli hisoblanadi. Bu davrda barglar odatdagidan tez sarg'ayadi, ba'zida bir necha kun ichida anchagina barg oltin tusga kirib, hatto to'kiladi. Ajablanarlisi, ekvatorida kuz umuman bo'lmaydi.

turish yoki o'zining ijtimoiy mavqeini ta'kidlash uchun qimmat yoki noyob avtomobillarni sotib olisharmish.

Gullarga bee'tibor inson bo'lmasa kerak, orxideya haqida qiziq ma'lumot bilishni xohlaysizmi? Orxideya – sayyoradagi eng qadimgi o'simlik oilalaridan bo'lib, u taxminan 145 million yil oldin paydo bo'lgan va o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. U dunyoning barcha yerida o'sishga muvaffaq bo'la oladi.

Megalodon nomli akula haqida eshitganmisiz? 2500 yil ilgari okeanlarda yashagan bunday akulaning uzunligi 18–25 metr bo'lib, og'irligi 300 kg ekan. Bu kabi baliqlarning qirilib ketishiga sabab, suvning o'zgarishi va suv sathi pasayishidir. Olimlarning fikricha, hozirgi vaqtda bunday baliq turlari butunlay yo'qolib ketgan.

Internet manbalari asosida
ZUHRA tayyorladi

Bir paytlar lola va qizg'aldoq bir yerda o'sar ekan. Lola hamisha qizg'aldoq ustidan kular edi:

– Men sendan ko'ra chiroyliman, – derdi u.

Qizg'aldoq bundan xafa bo'lib so'radi:

Qizg'aldoq hech narsa demadi. Lola esa maqtanishni va qizg'aldoqni kamitishni davom etdi.

Kunlar o'tib, qizg'aldoq dalalarda, qirlarda loladan uzoqlarda o'sa boshladi, lola esa o'zining manman-

LOLA VA QIZG'ALDOQ



– Nega sen meni yoq-tirmaysan?

– Chunki sen nozik-san, nimjonsan. Men esa ko'kam va go'zalman. Sen bilan bir joyda o'sganligimiz uchun suvni ko'p ichayapsan. Menga esa kam suv kerak, – dedi lola.

ligidan tog'larda yolg'iz qoldi.

Bolalar, yoningizdagi do'stlaringizni xafa qilmang!

Ulug'bek MANSUROV,
Samarqand shahar,
51-DIUM 3-«B» sinf
o'quvchisi

BO'SH O'TIRMA. BOSH QOTIR!

SO'Z ICHIDA SO'Z

1. Tog'da o'sgan o't – ...?
Kuzda pishdi «do'l» bilan.
2. Kimyoviy unsur oti,
To'rtta yonda soati.
3. Kam emas, ko'p ham emas,
Baliq desam, sazanmas.
4. Duradgorlik asbobi,
Samoda uchar javobi.
5. Derazada ko'rdim uni,
Choy quyadi har kuni.
6. Hosil yig'ar bolari,
Kuzda hal borlari.
7. Ishonch so'z ilovasi,
Niholning ilk mevasi.
8. Tulki xislati nega?
Sharh qiz bola ismiga.
9. Buyumlar asl nusxasi,
Tan olishga nuqtasi.
10. Yog'ochdan buyumlar yasar,
Ismi kasbiga yarashar.
11. Topishmoq: ... , izla, top?!
Usti-boshi o'zibop.
12. Takror aytilgan so'zim,
Mening ismim, der do'stim.

Tuzuvchi:
Anvar MIRZAZODA

1	D					a
2	K					t
3	Ch					n
4	V					k
5	Ch					k
6	M					a
7	N					a
8	S					a
9	T					M
10	R					M
11	K					k
12	T					n

Pazanda qizga!



Salom, jaji bekajonlar!
Bugun sizlar-ga hamyon-bop va ajoyib kotletlarni tayyorlashni o'rgatamiz.

KARTOSHKA VA PISHLOQLI KOTLETLAR

Buning uchun bizga: 6 dona yirik kartoshka, 1 ta piyoz, 50 gramm qiyma, yarim bog' ko'k-piyoz, tuz, maydalangan suxariklar, 1 dona tuxum, keragicha un va pishloq.



Tayyorlanishi: kartoshkani suvda qaynatib, pishgach, maxsus ezgich yordamida yaxshilab ezg'ilanadi. Piyozni parrak qilib to'g'rab, yog' solingan tovada qiyma bilan qovuriladi va ezilgan kartoshkaga aralashtiriladi. Tuz va to'g'ralgan ko'k piyoz solib, aralashtiriladi. Aralashmadan dumaloqlar yasilib, har birining orasiga bo'laklangan pishloq solinadi. Silindr shakliga keltirilgan kotletlarni avval unga, so'ngra atalangan tuxumga, keyin esa suxariklarga botirib, qizigan yog'da qizargunga qadar pishiriladi.

Yogimli ishtahal

NARGIZA tayyorladi

Sershovqin shahar... Odamlar qayergadir shoshadi. Tirband ko'chalar, mashinalar uzuq-yuluq signal chaladi... Xullas, hamma o'z yumushlari bilan band. Nazarimda, insonlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'usi birmuncha yo'qolgandek.

Mehr! U o'zi qanday tuyg'u? Menimcha, mehr bu yorug' olamni munavvar qiluvchi, nurga, ziyoga to'ldiruvchi mo'jizaviy tuyg'u. U ko'ngil mehvari, qalblarning mehrigiyosi, ziyoga chulg'ovchi quyoshidir. Mehr-oqibat, ezgulik yo'lini tanlagan insonning qalbi nurga to'ladi, atrofdagilarga ham nur ulashadi. Bunday insonlar ardoqlanadi, qadrlanadi, hurmatlanadi. Biroq bu o'tkinchi olamda inson ba'zan nafs quliga aylanib, go'zal xususiyatlarini, hatto toza qalbini ham yo'qotib qo'yishi mumkin. Shuning uchun har bir inson, xoh u katta bo'lsin, xoh kichik, insoniy fazilatlarini saqlab qolmog'i, qalbiga quloq solmog'i, atrofdagilarga mehr-oqibatli bo'lmog'i lozim. Shundagina u ulug' sharaflarga loyiq bo'ladi.

Inson yashayotgan zamin-u samo go'zaldir. Butun borliq – hamma-hamma narsa go'zal! Bu go'zalliklarni his qilib, qadrlab yashash – baxt! Bu ko'hna dunyo

kimlardir baxt, omad bilan siylasa, kimlardir dard-u armon bilan sinaydi. Inson zoti hammasiga ko'nadi, umid bilan yashaydi.

Bugun butun dunyo ahlining dolzarb muammosiga aylangan dahshatli virusni ham aynan umid, sabr, mehr bilangina yengishimiz mumkin. Qo'rquv, vahima iskanjasi-da dushmani yengib bo'lmaydi. Virusni barcha insonlar qalban birlashib yengishlari mumkin. Bu sinovlar insonlar orasida yo'qolib borayotgan mehr-oqibat rishtalarini qayta tiklash, mahkamroq bog'lash uchun yana bir imkoniyatdir, balki. Yoki ayrim oyog'i yerdan uzilib qolgan kimsalarga bu dunyoning mol-u davlat bilan o'lchanmasligini, hamma narsani pulga sotib olib bo'lmagligini anglatish uchun berilgandir...

Insoniyat tarixida shunday shaxslar bo'ladiki, ular o'zlari-ning halol mehnatlari, go'zal axloq-u odoblari, mehr-muruvvati,

fidoyiligi, insoniy fazilatlarini bilan ko'pchilikka ibrat bo'ladi. Bunday insonlar yerdagi farishtalardir. Bugun har bir bemor salomatligi uchun kunlarni tunlarga ulab kurashayotgan shifokorlarni yerdagi farishtalarga qiyoslasak arziydi. Aynan ular mana shunday og'ir damlarda xalqimizning dardiga darmon bo'lishmoqda. Ayni sinovli kunlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lib qolgan insonlarga beminnat yordam berayotgan, muruvvat qo'lini cho'zayotganlar ham farishtalardir. Ularni ko'rib, kuzatib, beixtiyor o'yga tolasan, kishi: «Men xalqimning dardiga darmon bo'lyapmanmi? Uning koriga yarayapmanmi?» Birdan sergak tortasiz... Sokin, betashvish o'ylaringizaro isyon shamoli oralaydi. Bu yaxshi ma'nodagi g'alayon – sizni g'afat uyqusidan uyg'otadigan, saxovatpeshalikka, fidoyilikka undaydigan xayrli so'rov. Inson o'zligini anglab, lo-

NIMA DEB O'YLAYSIZ?..



qayd tuyg'ulari girdobidan chiqib keta olgandagina yashashga munosibdir. Shunday ekan, ezgu ishlar qilishdan to'xtamaylik. Zero, ezgulik inson uchun eng go'zal fazilatdir.

Madina FURQATOVA,
Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi 40-DIUM 8-sinf o'quvchisi

sholgom ertagi!

RANGLAR JILOSII



Sabina HUSENOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 2-«D» sinf o'quvchisi



BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul Kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@gmail.com
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 1677
Buyurtma - V 4381

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08